

**BO‘LAJAK IQTISODCHILARNI IJTIMOIY-MADANIY YONDASHUV  
ORQALI MULOQOTGA O‘RGATISH**  
(autentik materiallar asosida)

**Xamdamova Nilufar Esanovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Guliston davlat universiteti doktoranti

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 26.05.2025*

*Revised: 27.05.2025*

*Accepted: 28.05.2025*

**ANNOTATSIYA:**

*Mazkur maqolada iqtisodiyot yo‘nalishida tafsil olayotgan talabalarini ingliz tilida samarali muloqotga o‘rgatishda ijtimoiy-madaniy yondashuvning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Xususan, autentik materiallardan foydalanish orqali talabalar til o‘rganish jarayonida madaniy konteksti angaydi va global iqtisodiy tizimlarda erkin muloqot qila olish salohiyatini rivojlantiradi.*

**KALIT SO‘ZLAR:**

*real hayotiy vaziyatlarda, turli madaniyat vakillari, xalqaro savdo, investitsiya, tarixiy voqealarni muhokama qilish, iqtisodiy terminlar.*

**KIRISH.** Hozirgi kunda Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi fanining dolzarb mavzularidan biri - til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini chuqur tahlil qilishdir. Til o‘rganish jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish, balki madaniy kontekstda muloqot qilish qobiliyatini ham shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Pedagogik nuqtayi nazardan, ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani rivojlantirish o‘quvchilarda madaniyatlararo sezgirlikni shakllantirishga, stereotiplardan xoli bo‘lgan muloqotni yo‘lga qo‘yishga hamda ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatini kuchaytirishga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv zamonaviy ta’lim tizimida til o‘rgatishning ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish orqali til o‘rganish samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa global miqyosda madaniyatlararo muloqotga tayyor, tolerant va kommunikativ jihatdan yetuk shaxslarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv jarayonida iqtisodiyot sohasi vakillarining xorijiy tillarda, xususan ingliz tilida samarali muloqot qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy grammatikaga asoslangan yondashuvdan farqli ravishda, ijtimoiy-madaniy yondashuv talabalarga tilni madaniyat bilan integratsiyalashgan holda o'rgatadi. Bunday yondashuv orqali talabalar tilni real hayotiy vaziyatlarda, madaniy asoslangan kontekstda o'rganadilar, bu esa iqtisodiy aloqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkonini beradi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv ko'ra, til o'rganish ijtimoiy muhit, madaniy kontekst va kommunikativ amaliyotlar bilan uzviy bog'liq. Til vositasida amalga oshiriladigan o'rganish jarayonida bilimlar ijtimoiy muloqot orqali shakllanadi va rivojlanadi. Ayniqsa, iqtisodiyot sohasida tahsil oluvchi talabalar uchun turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish, xalqaro savdo, investitsiya va muzokaralarda til vositasidan foydalanish zarurati mavjud. Shu bois ham, amaliy mashg'ulotlar davomida autentik matnlardan foydalanish nafaqat muloqotga o'rgatish, balki tilning boshqa jihatlarini (grammatika, leksika) ham o'zlashtirishda samarali vosita deb hisoblaymiz.

Autentik matn – bu real hayotda yaratilgan kommunikativ maqsadlarda yaratilgan matnlar bo'lib, ular talabalarga tilni tabiiy shaklda o'rganishga yordam beradi. Mazkur maqolada olib brogan tadqiqotimiz natijalari taqdim etishga jazm etdik. Culture and Language mavzusida "A Short History of Australia" matnidan foydalandik. Avstraliya tarixiga oid quyidagi matn orqali talabalar madaniy kontekstda tilni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar:

*"Australia's first people were the Aborigines. They have occupied the continent for at least 50,000 years, and before the Europeans arrived in 1788 their population was probably between 300,000 and 750,000. They occupied a lot of the northern territory..."*

Bu matn orqali talabalar Avstraliya tarixidagi kolonializm, migratsiya va mahalliy xalqlar haqidagi madaniy tushunchalarini o'zlashtiradi. Shuningdek, matn tarkibidagi grammatik birliklar – o'tgan zamon, hozirgi zamon perfect shakllari – kontekstual tarzda tahlil qilinadi.

Talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. Matndagi quyidagi fe'llarni jadvalga ajrating va har birining zamonini aniqlang. Har bir zamon nima sababdan qo'llanganini izohlang.

Fe'l	Zamon	Sababi
were	Past Simple	Oddiy tarixiy fakti ifodalash uchun
.....	.....	.....

2. Muloqot qilish uchun topshirig'lardan namuna. Talabalar guruhlarga bo'linadi va quyidagi savollar asosida munozara o'tkazadilar:

1. Why did Britain colonize Australia?
2. How were new colonies established in Australia?
3. If you were a representative of the British government, would you support the decision to colonize Australia?

4. How do such historical events affect today's international economic relations?

3. *Lug'at boyligini oshirish va tahlil uchun topshiriqlar. Quyidagi so'z va iboralarning ma'nosini tahlil qiling va iqtisodiy kontekstda qanday ishlatalishini aniqlang:*

- convict
- resources
- settlement
- migration

Mazkur metodika asosida olib borilgan eksperimentda iqtisodiyot yo'nalishining ikkita guruhida autentik materiallar asosida o'qitish joriy etildi. Dastlabki va yakuniy test natijalari tahlil qilinib, talabalar grammatika, so'z boyligi va muloqot kompetensiyalarida sezilarli o'sish qayd etildi. Xususan, madaniy kontekstda savollarga javob berish, tarixiy voqealarni muhokama qilish va iqtisodiy terminlarni to'g'ri ishlatalish darajasi oshdi.

Xulosa o'rnilida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, ijtimoiy-madaniy yondashuv va autentik materiallar asosida o'qitish iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalarni global kommunikatsiya muhitiga tayyorlaydi. Bu yondashuv nafaqat til ko'nikmalarini, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantiradi. Natijada, talabalar nafaqat ingliz tilida gapira oladigan, balki xalqaro iqtisodiy muhitda mustaqil fikrlay oladigan mutaxassis sifatida shakllanadi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Esanova H. N. SOCIOCULTURAL COMPETENCE IS THE GOAL OF USING A SOCIOCULTURAL APPROACH TO TEACHING A FOREIGN LANGUAGE //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – T. 3. – №. 25. – C. 358-360.
2. Xamdamova N. E. SOME VIEWS ON SOCIOCULTURAL THEORIES IN LANGUAGE ACQUISITION //Scientific progress. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 92-94.
3. Hamdamov E. E. THE CONTENT OF THE LANGUAGE PROFESSIONAL-GNOSTIC TRAINING OF AN ENGLISH TEACHER //Bulletin of Gulistan State University. – 2021. – T. 2021. – №. 2. – C. 35-41.
4. Hamdamov E. E. Technology Forming the Gnostic Competence of Future Teachers of Foreign Language //Bulletin of Gulistan State University. – 2021. – T. 2021. – №. 1. – C. 50-55.
5. Ergashevich, H. E. . (2022). Bo'Lajak Ingliz Tili O'Qituvchisining Kasbiy-Gnostik Kompetensiyasi Va Uning Didaktik Ahamiyati. *Miasto Przyszlosci*, 25, 302–304. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/378>